<b>Халекеева Зоя Пирниязовна, Эшов Алишер Ахтамович</b>	
Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarini shakllantirishning mohiyati va nazariy asoslari .....	888
<b>Ashurov Azizbek Asqaraliyevich</b>	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda erkin iqtisodiy zonalarning ahamiyati .....	892
<b>Xakimova Gulzora Jamshidovna</b>	
Xorijiy mamlakatlar miqyosida elektron xizmatlarning rivojlanish tendensiyalari va ularning ko'rsatkichlari.....	896
<b>Xudoyorova Mehrangiz</b>	
Iqtisodiy o'sish samaradorligini ta'minlashda tabiiy va moliyaviy resurslardan unumli foydalanish masalari.....	901
<b>Xomidova Kamola G'olib qizi</b>	
“Silk road stations” turizm rastalarini tashkil etish loyihasini amalga oshirishning tashkiliy-iqtisodiy yo'nalishlari .....	907
<b>Suxrob Ramazonovich Bobokalonov</b>	
Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda fond bozorining rolini oshirish mexanizmlari.....	916
<b>Kamilova Iroda Xusnitdinovna</b>	
Transport xizmatlari bozorini shakllantirish va rivojlantirishda ahamiyati .....	921
<b>Muxtorova Indirabonu Yasharbek qizi</b>	
Banklarda kredit operatsiyalari hisobi va tahlilini takomillashtirish yo'llari.....	927
<b>G'olib Tashmanov, Hilolaoy Egamberdiyeva</b>	
Innovatsion iqtisodiyotda telemeditsina xizmatlarini tashkil etishning zamonaviy shakllari.....	933
<b>S.M. Raximova</b>	
Marketing tadqiqotlarining iqtisodiy mazmuni, turlari va bozorni segmentlarga ajratish masalari.....	937
<b>Valiyeva Aziza</b>	



# MARKETING TADQIQOTLARINING IQTISODIY MAZMUNI, TURLARI VA BOZORNI SEGMENTLARGA AJRATISH MASALALARI

Valiyeva Aziza

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada marketing tadqiqotlarining iqtisodiy mazmuni, turlari va bozorni segmentlarga ajratish masalalari yoritilgan. Marketing tadqiqotlari atamasiga iqtisodchi olimlar tomonidan berilgan ta'riflar o'rganilgan va mualliflik yondashuvi shakllantirilgan. Marketing tadqiqotlarining turlarini guruhlarga va bozorni segmentlarga ajratish bo'yicha xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** marketing, marketing tadqiqotlari, marketing tadqiqotlari turlari, bozorni segmentlarga ajratish.

**Abstract:** The article examines the economic content, types and issues of segmentation of the marketing research market. The definitions given by economists to the term "marketing research" are studied, and the author's approach is formed. Conclusions and proposals are made on dividing the types of marketing research into groups and the market into segments.

**Key words:** marketing, marketing research, types of marketing research, market segmentation.

**Аннотация:** В статье рассматриваются экономическое содержание, виды и вопросы сегментации рынка маркетинговых исследований. Изучены определения, данные экономистами термину "маркетинговое исследование", и сформирован авторский подход. Сделаны выводы и предложения по разделению видов маркетинговых исследований на группы и рынка на сегменты.

**Ключевые слова:** маркетинг, маркетинговые исследования, виды маркетинговых исследований, сегментация рынка.

## KIRISH

Hozirgi kunda raqobat muhitining keskinlashuvi, iste'molchilarning ehtiyoj va talablarining o'zgaruvchanligi, hamda yangi texnologiyalarning tezkor rivojlanishi natijasida marketing tadqiqotlari har qanday biznesning muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishi uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Marketing tadqiqotlari orqali korxonalar bozor tendensiyalarini aniqlash, iste'molchilarning xulq-atvorini o'rganish, raqobatchilar faoliyatini tahlil qilish va bozorda o'z pozitsiyasini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Marketing tadqiqotlarining iqtisodiy mazmuni korxonaning strategik qarorlarini qabul qilishda zarur bo'lgan aniq va ishonchli ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va ular asosida tegishli tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan. Bu tadqiqotlar korxonaning bozordagi holatini baholash, iste'molchilarning hozirgi va kelajakdagi ehtiyojlarini aniqlash, yangi mahsulotlar yoki xizmatlar uchun bozor talabini bashorat qilish kabi masalalarda muhim rol o'ynaydi.

Marketing tadqiqotlari turlari o'z oldiga qo'yilgan maqsadlar, uslubiyat va qo'llanilish sohasiga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin. Bozorni segmentlarga ajratish esa marketing tadqiqotlarining muhim qismi hisoblanib, iste'molchilarning ehtiyojlari va xulq-atvorlarini to'g'ri aniqlash orqali korxonalarga o'z mahsulot va xizmatlarini aniq maqsadli auditoriyaga yo'naltirish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida, marketing strategiyasini samarali tashkil qilish va resurslardan oqilona foydalanish imkoniyatlarini yaratadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Marketing faoliyatini shakllantirish va uning strategiya hamda taktikasini belgilashning asosi marketing tadqiqotlari hisoblanadi. Marketing tadqiqotlarining maqsadi va mazmuni doimo va tizimli ravishda axborotlar to'plash, ularni tahlil qilish va natijalaridan korxonani boshqarish jarayonida foydalanishni tashkil etadi.

Marketing tadqiqotlarining juda ko'p ta'riflari, uning korxonada faoliyatidagi roli va undan foydalanish maqsadlari haqidagi qarashlar mavjud. Marketing tadqiqotlarining klassik ta'rifi F.Kotlarning ta'rifi hisoblanadi: "Marketing tadqiqotlari - bu kompaniya oldida turgan marketing vaziyati bilan bog'liq holda zarur bo'lgan ma'lumotlar doirasini tizimli ravishda aniqlash, ularni to'plash, tadqiq qilish va natijalar bo'yicha hisobot berishdir" [1]. N.H.Engle marketing tadqiqotini: "tovar va xizmatlarni iste'molchiga o'tkazish va sotish bilan bog'liq barcha muammolarni o'rganish; ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasidagi "munosabatlarni" yaxshilash; tovarlarni sotishga tayyorlash va ularni jismoniy taqsimlash; ulgurji va chakana savdo" deb ta'riflagan [2]. Shu bilan birga,



u marketing tadqiqotlari va bozor tadqiqotini farqlash juda muhimligini aniqlaydi, chunki ikkinchisi faqat ma'lum bir bozor yoki marketing sohasini ozgina tahlil qilgan holda faktlarni aniqlashga ishora qiladi, birinchi atama esa nafaqat ma'lum bozorlar haqidagi faktlarni to'plash, shuningdek, marketing usullari, marketing siyosati, to'plangan faktlarni tahlil qilish va ulardan tegishli tavsiyalar xulosasini ham o'z ichiga oladi.

Amerika Marketing Assotsiatsiyasi marketing tadqiqotlariga quyidagicha ta'rif beradi: "Marketing tadqiqoti – bu ishlab chiqaruvchi, iste'molchi va jamoatchilikni ma'lumot, ya'ni marketing imkoniyatlari va muammolarini aniqlash uchun foydalaniladigan ma'lumotlar orqali, sotuvchi bilan bog'laydigan funktsiya; marketing faoliyatini yaratish, takomillashtirish va baholash; marketing kampaniyalarining samaradorligini nazorat qilish va marketingni jarayon sifatida tushunishni yaxshilash" [3].

Robert Dahlstrom, Arne Nygaard va Jody L. Crosno marketing tadqiqotlariga bag'ishlangan va Journal of Marketing Research jurnalida 1986–1990 va 1996–2000 yillarda nashr etilgan 844 ta maqolalarni tahlil qilib, marketing tadqiqotlari bo'yicha 12 asosiy tematik yo'nalishlari (branding, tarqatish kanallari, iste'molchining xulq-atvori, marketing usuli, marketing falsafasi, narxlash, mahsulot, reklama, davlat siyosati, savdo, xizmat ko'rsatish, strategiya) ni va marketing tadqiqotlari maqolalarida eng ko'p qo'llaniladigan 9 ta tadqiqot strategiyalari (nazariya/adabiyotni ko'rib chiqish, namunalarni o'rganish, laboratoriya tajribasi, simulyatsiya model-lashtirish, maydon, birlamchi ma'lumotlarni o'rganish dala tadqiqotlari, ikkilamchi ma'lumotlarni o'rganish dala tadqiqotlari, dala tajribasi, baholash vazifasi, miqdoriy modellar)ni aniqladilar.

Yuqoridagi ta'riflardan xulosa qilishimiz mumkin, marketing tadqiqotlari kompaniyani boshqarish jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lgan faoliyatdir. Bundan tashqari, marketing tadqiqotlari: yagona yoki vaqti-vaqti bilan yuzaga keladigan muammolarni hal qilish; mijozlarning va umuman bozorning ehtiyojlarini aniqlashga qaratilgan; marketing tadqiqotlari natijalari javob berishi kerak bo'lgan savollarning keng doirasi tufayli tadqiqotning vazifasi va maqsadiga qarab bir necha xil tipologiyalar mavjud.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Xalqaro moliya institutlari faoliyatining davlatlar rivojlanishiga ta'siri tendensiyalarini o'rganishda umumiylikdan individualikka va aksincha tartibda deduksion yoki induksion usullardan foydalanish samara bersa, abstrakt-mantiqiy fikrlash usuli esa jarayonni tizimli tahlil qilishda ahamiyatlidir. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullarini keng foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Marketing tadqiqotlari funktsiyasiga ko'ra besh turga bo'linadi [4]. Qidiruv (izlash) tadqiqotlari – dastlabki yig'ish va qiziqish obyekti haqidagi ma'lumotlarni tizimlashtirish; axborot bazasini shakllantirish; ishlaydigan gipotezani ilgari surish. Tasvirlovchi (ta'riflovchi) tadqiqot o'rganilayotgan obyekt to'g'risidagi faktlarni aniqlash uchun amalga oshiriladi. Eksperimental tadqiqot – eksperimental tadqiqotlar yordamida gipotezalar tekshiriladi. Tasodifiy (analitik) tadqiqot – tahlil qilinadigan obyektlar o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash. Tadqiqotning oldingi bosqichlari natijalarining to'g'riligini baholash uchun test tadqiqotlari o'tkaziladi.

Funksiya bo'yicha tipologiyadan farqli o'laroq, hal qilinayotgan vazifalar va maqsadlarga ko'ra marketing tadqiqotlarining ko'plab tipologiyalari ishlab chiqilgan. Birinchidan, bu marketing tadqiqotlari amaliyotining o'zi XIX-asrning oxirlariga to'g'ri kelishi bilan bog'liq. Ikkinchidan, korxonada faoliyat yuritadigan bozor ham mavjud marketing tadqiqotlari turlarida kuchli iz qoldiradi. Masalan, chakana savdo sohasidagi marketing tadqiqotlarida hashamatli tovarlarni sotish va qadoqlash/yoriqlash turlari ajratiladi. Lekin, farmatsevtika sanoatida ajratib bo'lmaydi [5]. Ushbu tadqiqotda marketing tadqiqotlaridagi umumiy tendensiyalarga e'tibor qaratishga harakat qilindi.

Marketing tadqiqotlarining ikkita tipologiyasini ko'rib chiqamiz: adabiy manbalarni tahlil qilish paytida ishlab chiqilgan tipologiya va marketing tadqiqotlari bo'yicha ishlar ma'lumotlar bazasini tahlil qilish paytida ishlab chiqilgan tipologiya.

Birinchi tipologiyani N.H.Engle ishlab chiqqan. U o'z izlanishlarida marketing tadqiqotlarining 4 ta asosiy yo'nalishini belgilaydi, ya'ni: bozorni o'rganish, tarqatish kanallarini o'rganish, marketing funktsiyalarini tahlil qilish va marketing xarajatlarini tahlil qilish. Har bir guruh uchun tadqiqotchi tadqiqotning uchdan ettigacha kichik guruhini ham aniqlaydi:

1. Bozorni o'rganish: bozor hajmi, bozorning joylashuvi, xarid qobiliyati, iste'molchilarning afzalliklari, raqobatchilar tahlili, bozorning to'yinganligi. 2. Tarqatish kanallari: integratsiyalashgan marketing, ishlab chiqaruvchilar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri sotish, yirik chakana sotuvchilar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri xaridlar, funktsional vositachilardan foydalanish, ulgurji savdo, qo'shma marketing, qishloq xo'jaligi kooperativlari va



boshqalar. 3. Marketing funksiyalarini tahlil qilish: funksiyasi bo'yicha ixtisoslashuv, sotib olish-yig'ish, savdoni qo'llab-quvvatlash, reklama, shaxsiy sotish, saqlash-omborlash, transport-etkazib berish, moliya-kredit, standartlashtirish-baholash. 4. Marketing xarajatlarini tahlil qilish: mahsulot bo'yicha, tarqatish kanali bo'yicha, marketing funksiyasi bo'yicha.


Ikkinchi tipologiya Robert Dahlstrom, Arne Nygaard va Jody L. Crosno tomonidan taklif qilingan. Mualliflar marketing tadqiqotlariga bag'ishlangan va Journal of Marketing Research jurnalida 1986-1990 va 1996–2000-yillarda nashr etilgan 844 ta maqolalarni tahlil qilib, marketing tadqiqotlari bo'yicha 12 asosiy tematik yo'nalishlari (branding, tarqatish kanallari, iste'molchining xulq-atvori, marketing usuli, marketing falsafasi, narxlash, mahsulot, reklama, davlat siyosati, savdo, xizmat ko'rsatish, strategiya) ni va marketing tadqiqotlari maqolalarida eng ko'p qo'llaniladigan 9 ta tadqiqot strategiyalari (nazariya/adabiyotni ko'rib chiqish, namunalarni o'rganish, laboratoriya tajribasi, simulyatsiya modellashtirish, maydon, birlamchi ma'lumotlarni o'rganish dala tadqiqotlari, ikkilamchi ma'lumotlarni o'rganish dala tadqiqotlari, dala tajribasi, baholash vazifasi, miqdoriy modellar) ni aniqladilar.

“Marketing tadqiqotlari bo'yicha izlanishlarning mavzulariga kelsak, bu erda marketing tadqiqotlarida qo'llaniladigan usullar bo'yicha tadqiqotlar soni sezilarli darajada kamayganini (birinchi davrda 24,8 %, ikkinchi davrda 5,8 %) va aksincha, brandingga bag'ishlangan tadqiqotlar esa sezilarli darajada o'sishini kuzatishimiz mumkin (12,0 % dan 29,9 % gacha). Mahsulotlar, strategiyalar, marketing falsafasi va xizmat ko'rsatish mavzularidagi izlanishlar soni ham sezilarli darajada oshdi. N.H.Engle hamda Robert Dahlstrom, Arne Nygaard va Jodi L. Crosnoning tipologiyalarini solishtirish asosida tadqiqot jurnallari asosan o'ziga xos va aniq muammoni hal qilishga qaratilgan marketing tadqiqotlarini: branding, xizmat ko'rsatish, reklama va boshqalarni ko'proq nashr ettganini ta'kidlash mumkin. Biroq, ikkala tadqiqot mualliflari ta'kidlashlaricha, ko'pchilik marketing tadqiqotlari, qoida tariqasida, istiqbolli emas, balki biznes amaliyotining hozirgi yoki o'tmishdagi holatini aks ettiradi, bu esa umuman marketingning rivojlanishini sekinlashtiradi” [6].

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Marketing tadqiqotlarining iqtisodiy mazmuni, turlari va bozorni segmentlarga ajratish masalalarini o'rganish jarayonida kuzatish, marketing usuli, sotish usuli, eksperiment, panelli o'rganish, so'rov va boshqa tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Marketing tadqiqotlari axborot turlari, predmeti va jarayonlari 1-rasmda aniq ifodasini topgan.



1-rasm. Marketing tadqiqotlari axborot turlari, predmeti va jarayonlari.



“Birinci bo‘limda qaysi axborot, qanday maqsad uchun to‘planishi va tahlil qilinishi ko‘rsatilgan. Eng muhimi nima qilish kerak? Marketing muammosini qanday hal qilish kerak? Uning yechimini topishga yondashish bo‘yicha savollarga javob topishda kerak bo‘ladigan axborotlar keltiriladi.

Ikkinchi bo‘limda marketing tadqiqotlari obyekti ko‘rsatilgan. Obyektni o‘rganish, izlanishning predmeti va turini ham tadqiq qilishni talab etadi. Bunday tadqiqotlar asosan bozor elementlari (talab, taklif, baho, iste‘molchi) va mahsulotlarni sotish sharoitlari hamda ularning infrastrukturasi o‘rganishni qamrab oladi.

Uchinchi bo‘limda marketing tadqiqotlarining tashkiliy-uslubiy tuzilishi yoki marketing qarorini qabul qilishga olib keluvchi o‘zaro bog‘liq jarayonlar tasvirlangan. Shu bo‘limning 2-7-qismlarida axborotlar manbai va to‘plash yo‘llari ko‘rsatilgan” [7].

Bugungi kunda bozorda muvaffaqiyatga erishish, ilmiy-texnika taraqqiyoti natijasida korxonaning ishlab chiqarish, moliyaviy va texnologik salohiyati bilan emas, balki marketing tadqiqotlari o‘tkazishdagi faollik, tashabbuskorlik va tajribasi bilan aniqlanadi degan fikr-mulohazalar hukm surmoqda. Buni tasdiqlovchi haqiqat shuki, “keyingi 10-15 yilda marketing tadqiqotlari zamonaviy biznesning katta mustaqil sohasiga aylanib bo‘ldi. Ma‘lumotlarga ko‘ra, “50 foizdan ko‘p amerikalik, 86 foiz yevropalik va 60 foiz Yaponiya biznesmenlari, firma va kompaniyalari marketing tadqiqotlarini o‘z kuchlari bilan olib boradilar. Qolganlari esa maxsus tadqiqot muassasalariga murojaat qilishadi. Hozir marketing tadqiqotlari bilan juda ko‘p ilmiy-tekshirish byurolari, firmalari, agentliklari, universitetlari, davlat muassasalari shug‘ullanishmoqda. Masalan, G‘arbiy Germaniyada 120 dan ko‘proq 3 ming kishilik ilmiy xodimlari bo‘lgan tashkilotlar marketing tadqiqoti olib bormoqda. Fransiyada bunday muassasalar 100, Angliyada 200, AQSh da 800 dan -ko‘proq bo‘lib, ushbu tashkilot va muassasalar bir yilda 1 milliard dollar atrofida mablag‘ aylantiradi” [7].

Marketing tadqiqotlariga shunday qiziqishning asl ma‘nosi - bozorda raqobat shaklining o‘zgarib borishi va aholi talabiga ilmiy-texnika yutuqlarining katta ta‘sir o‘tkazishidir. ““Baholar urushi” deb atalgan 30-60-yillardagi raqobat uslublari o‘rnini mahsulotning tayyorlanish sifati, assortimentining tez o‘zgarishi, sotishdan keyingi servis va texnika xizmat ko‘rsatishlar egallamoqda” [7].

Hozir raqobatda yutib chiqishning asosiy sharti yangi, yuqori sifatga ega bo‘lgan tovar va kompleks servis-texnika xizmatlarini hamda samarali sotish usullarini qo‘llashdan iborat bo‘lib qoldi. Ana shu talablar asosida marketing tadqiqotlarining ustuvor turi – iste‘molchilarni o‘rganish, o‘z navbatida bozorni segmentlash (tabaqa-lash)dan boshlanadi. Chunki bozor bir xil subyektlar - qatnashchilardan tashkil topgan emas.

Bozorni segmentlarga ajratish - uning iste‘molchilarini maxsus guruhlash demakdir.

Marketing amaliyotida bozorni segmentlarga bo‘lishda uch xil yondashish ishlab chiqilgan. Birinchi – ommaviy bozor. Korxonaga kirishda, keng xaridorlar ommasiga qaratilgan bir xil marketing dasturiga ega bo‘ladi. Ikkinchi – segmentlashgan bozor. Korxonada, asosiy e‘tiborini alohida belgilarga ega bo‘lgan bir xil segmentlarga qaratadi. Ana shu segment uchun maxsus dastur ishlatiladi. Uchinchi – ko‘pchilik ko‘rsatkichlari bilan tabaqalashgan bozor. Bunda o‘z xususiyatlari bilan farqlanadigan bir yoki ikki xil segment alohida ishlab chiqiladi. Bozor segmentlari doimiy emas. Har doim korxonaga o‘zining imkoniyatlari va maqsadlariga mos holda bozorni quyidagi segmentlarga bo‘lishi mumkin. Masalan, iste‘mol tovarlari bozorida quyidagi segmentlar mavjud:

- xaridorlar segmentlari (iste‘molchilar, ularning talablari, xatti-harakatlari va boshqa belgilar);
- tovar segmentlari (ommaviy va arzon, qiymat va maxsus kundalik, yangi va hokazo);
- savdo segmentlari (tovar harakati, sotish usullari va boshqalar);
- geografik segmentlar (iqtisodiy rivojlanish darajasi bo‘yicha tuman, shahar, viloyatlar) aholi soniga va joylashishiga qarab bo‘linadi.

Amaliyotda albatta bozorni yuqoridagi va boshqa belgilariga qarab segmentlanadi. Ammo, hamma vaqtda, segmentlar orasida tafovut ajralib turishi, aksincha, chakana xaridorlarda esa o‘xshashlik bo‘lishi shart. Korxonaga o‘zi tanlagan segmentlari xususiyatlarini va talablarini o‘lchay olishi va ularga chiqish yo‘llarini egallashi lozim. Segmentlar kerakli keng hajmi va kelajagi porloq bo‘lishi kerak.

Iste‘molchilar sifatida, bozorda ishlab chiqaruvchilar, ulgurji va chakana savdo, davlat va boshqa notijorat muassasalari qatnashishlari mumkin. Iste‘molchilarning asosiy turlari - tovarlar va xizmatlarning shaxsiy va oilaviy ehtiyojlarini qondirish uchun xarid qiluvchi kishilardir.

Marketingda tadqiqotlar o‘tkazish va segmentlashning asosiy maqsadi ana shu iste‘molchilarning bozordagi xatti-harakatlarini chuqur o‘rganib, ularning modelini yaratish va kelajakdagi ehtiyoj (talab)larini tasavvur qilishdan iborat.

Marketing kontsepsiyasi (tamoyili)ga asosan, har qanday korxonaga, bozorda muvaffaqiyatga erishish uchun eng avvalo iste‘molchilar tilak-istaklarini nazarda tutishi kerak. Bu esa iste‘mol jarayonini, aholi ehtiyoji va talabini bilish va ularga mos tushadigan tovarlar va xizmatlar taklif etishini taqozo qiladi.

Ushbu masalani yechishda quyidagi qoidalarga rioya qilinadi:

1. Xaridorni tushunish va uning qiziqish doirasini aniqlash
2. Tovar va xizmatlarning mulkchiligini ta‘minlash



### 3. Tovarlar haqida kerakli axborotlar yetkazib berish.

Yuqoridagi qoidalarni bajarish, marketingning quyidagi to'rt aksiomasiga asoslanadi: Birinchi: "Qiziqtirish muvaffaqiyat garovi". Ikkinchi: "Raqobat tanlashni rag'batlantiradi". Uchinchi: "Tanlov qiyinchilik tug'diradi". To'rtinchi: "Tanlovdagi raqobat tovarni takomillashtiradi".

Marketing nazariyasi va amaliyoti iste'molchilar talablarini o'rganishda, ularning ijtimoiy-iqtisodiy va demografik tavsiflariga ko'ra (daromad, yashash joyi va sharoiti, oila tarkibi, jinsi, yoshi, mashg'uloti va boshqalar) darajalab turlarga bo'lish uslubini ishlab chiqqan. Shu bilan birga iste'molchilar xatti-harakatini psixografika asosida tahlil qilinishi (qiziqishlari – xobbi, yangiliklarga progressiv va konservativ qarashlari, hayotiy mo'jizalar to'g'risidagi fikrlari va boshqalar) orqali, ularni empirik turlarga ajratish keng rivojlanmoqda. Natijada iste'molchilar, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik o'xshashliklariga qarab "Modani quruvchilar", "programmachilar", "nafosatshunoslar", "texnikasevarlar" va boshqalarga bo'linadi.

Bozorlarni segmentlashda uslubiy va axborot to'plash hamda turlarga bo'lish asosi bo'lib Panelli o'rganish hisoblanadi. Iste'molchilar panelli – oldindan tayyorlangan dastur asosida doimo kuzatib boriladigan tanlanma iste'molchilar guruhi (oilalar) yoki qishloq, mahalla, ovul, tuman va shahar bo'lishi mumkin.

"Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda iste'molchilarning madaniy saviyasi yuqorilashib borgan sari, ularning o'z huquqlarini bozorda himoya qilishlari uchun kurash ham kuchayib bormoqda. "Kons'yumerizm" – deb ataluvchi ana shunday ittifoqlar 60-yillarda vujudga keldi. Ular bozorda paydo bo'lib qolayotgan, tekshirilmagan dorilar, sabzavot, poliz ekinlari va hokazolarga qarshi kurashmoqdalar. Hozir iste'molchilar huquqini himoyalash kurashi keng rivojlangan. Ularning talablari bilan iste'molchilarga atalgan jurnallar, reklama, maslahatlar, tovarlarni ekspertiza qilish va sifatsiz mahsulot ishlab chiquvchilarni javobgar qilishgacha bo'lgan tadbirlar amalga oshirilmoqda" [7].

"Ana shu harakat qatnashchilari talabi va ta'siri natijasida 1985 yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Assambleyasi "Iste'molchilarni himoya qilishga oid quyidagi rahbarlik talablarini" ishlab chiqdilar:

- zararli tovarlar ishlab chiqaruvchi korxonalariga milliy va xalqaro miqyosda qarshi kurashishda mamlakatlarga yordam berish;
- iste'molchilarga bozorda past narxlar bilan ko'p miqdorda tovar taklif etish sharoitlari yaratilishini rag'batlantirish;
- tovar va xizmatlar ishlab chiqaruvchilar orasida iste'molchilarga yuqori darajada estetik (nafosat bilan) munosabatda bo'luvchilarni alohida siylash" [8].

Bu talablar iste'molchilar salomatligini va xavfsizligini himoya qilishga qaratilgan. "Hozir iste'molchilar Ittifoqining xalqaro tashkiloti mavjud. Unga 100 ortiq davlatlar va 200 dan ortiq yirik firma va kompaniyalar a'zo bo'lgan" [9].

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, "marketing tadqiqotlari" atamasiga iqtisodchi olimlar tomonidan berilgan ta'riflari va shu sohadagi tashkilotlarning yondashuvlari e'tiborga loyiqligini e'tirof etgan holda quyidagi yondashuvni shakllantirdik: "Marketing tadqiqotlari - bu bozor kon'yunkturasi: narxlar, raqobatchilar, foydalanuvchilar va boshqalar haqidagi ma'lumotlarni to'plash, tasniflash va tahlil qilishdir. Marketing tadqiqotlari - bu bozor, mahsulot yoki xizmat haqidagi ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va sharhlash uchun vositalar to'plamidir".

Shunday qilib, marketing tadqiqotlari maqsadini to'g'ri aniqlash va uni o'tkazishda mavjud uslublardan samarali foydalanish talab etiladi. Shuningdek, marketing tadqiqotlarida bozorni segmentlarga ajratishga katta e'tibor qaratish lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Котлер Ф. Основы Маркетинга. Краткий курс [Текст] / Ф. Котлер. К.: Вильямс, 2015. 496 с.
2. Беляевский И.К., Серебровская Т.П. Маркетинговые исследования [Текст] / И.К. Беляевский, Т.П. Серебровская. М.: Московская финансово-промышленная академия, 2006. 163 с.
3. American marketing association. <https://www.ama.org/>
4. Engle N.H. A Program for Marketing Research [Text] // Journal of Marketing, 1937. Vol. 1. P. 280-282.
5. Parsons A.G., Descatoires E. Retail marketing: A novel research agenda [Text] // Australasian Marketing Journal, 2016. Vol. 24. P. 102-107.
6. Dahlstrom R., Nygaard A. Strategic, Metric, and Methodological Trends in Marketing Research and Their Implications for Future Theory and Practice [Text] // Journal of Marketing Theory and Practice, 2008. Vol. 16. P. 139-152
7. Солиев А., Усмонов А. МАРКЕТИНГ. Тошкент, "Ўқитувчи", 1997.
8. United Nations guidelines for consumer protection. <https://unctad.org/topic/competition-and-consumer-protection/un-guidelines-for-consumer-protection>
9. Consumers International. <https://www.consumersinternational.org/>

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 8**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

